



OTA-ONA VA FARZAND MUNOSABATLARINING BOLALARDA O‘Z-O‘ZINI BAHOLASHGA TA’SIRI: NAZARIY VA PSIXOLOGIK TAHLILI

Latipova Lobar To‘raboyevna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti

Xolyigitova Nasiba Xabibullayevna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti (PhD)

Maratov Timur G‘ayratovich

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti(PhD)

Bolalar shaxsining psixologik rivojlanishida o‘z-o‘zini baholashi muhim ahamiyatga ega. O‘z-o‘zini baholash – bu bolaning o‘z qobiliyatlari, imkoniyatlari va ijtimoiy qadriyatlari haqidagi bahosi bo‘lib, uning ruhiy barqarorligi, motivatsiyasi va ijtimoiy moslashuvi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ota-ona bilan munosabatlar bolalarning shaxsiy o‘sishi va o‘z-o‘zini baholash darajasiga bevosita ta‘sir qiladi. Qo‘llab-quvvatlovchi va tushunuvchi munosabatlar bolalarda yuqori o‘z-o‘zini baholashni shakllantirsa, salbiy, beparvo yoki tanqidiy munosabatlar past baholash va ichki qarama-qarshiliklarni yuzaga keltiradi.

Material metodlar.

Baumrind tarbiyaviy uslublari metodlari asos sifatida qo‘llanildi. Bu metodlar bolalarning o‘zini baholash darajasi, kognitiv va emosional komponentlarini aniqlash hamda ota-onaning tarbiyaviy munosabatlarini tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot davomida bolalarga va ota-onalarga so‘rovnomalar, intervyu va suhbatlar o‘tkazildi, shuningdek, bolalarning maktab va oilaviy muhitdagi xatti-harakatlari kuzatildi. Yig‘ilgan ma‘lumotlar deskriptiv va korrelyatsion tahlil qilinib, ota-ona munosabatlari bilan bolalarning o‘z-o‘zini baholash o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Nazariy asosini L. S. Vygotskyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi tashkil etildi va bu nazariya bolalar va ota-ona munosabatlarining shaxsning psixologik



rivojlanishiga ta'sirini tushuntirish imkonini berdi. Shu tarzda, ilmiy metodlar va empirik kuzatishlar birlashtirilib, tadqiqotning ilmiy asoslanganligi ta'minlandi.

Natijalar

Tadqiqotda Baumrind tarbiyaviy uslublari asosida o'rganilgan ota-ona munosabatlari bilan bog'liq tahlil shuni ko'rsatdiki: autoritativ (*iliq va qo'llab-quvvatlovchi*) uslubdagi ota-onalar bolalarining o'z-o'zini baholash darajasi eng yuqori, autoritar (*qat'iy va tanqidiy*) uslubdagi ota-onalar bolalarining o'z-uzini baholashi past, permissiv (*beparvo*) uslubdagi ota-onalar bolalarida esa o'z-uzini baholash o'rtacha darajada aniqlangan. Kuzatuv va suhbatlar natijalariga ko'ra, bolalarning o'zini baholashidagi kognitiv komponent (*o'z qobiliyatlarini baholash*) va emosional komponent (*o'zini qadrli his qilish*) o'rtasida kuchli bog'liqlik mavjud. Ota-onaning iliq munosabati bolalarda ijobiy hissiy va kognitiv baholarni rivojlantirsa, tanqidiy yoki beparvo munosabatlar past baholash va ruhiy tushkunlikni keltirib chiqaradi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, bolalarning o'z-uzini baholash darajasi nafaqat oila muhitiga, balki ota-onaning tarbiyaviy uslubiga ham bog'liq bo'lib, bu ularning ijtimoiy va ruhiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, bolalarning o'z-o'zini baholash darajasi ota-ona munosabatlariga bevosita bog'liq. Iliq va qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar bolalarda o'ziga ishonch va ijobiy baholashni rivojlantiradi, salbiy yoki tanqidiy munosabatlar esa past baholash va hissiy noqulaylikka olib keladi. Kognitiv va emosional komponentlar o'z-uzini baholashda muhim rol o'ynaydi, va ota-onaning tarbiyaviy uslubi bu jarayonni belgilaydi. Shu asosda, tadqiqot natijalari ota-onalar va psixologlar uchun bolalarning ijobiy o'z-o'zini baholashini shakllantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi.